

**XORIJIY TILLARNI BOLALARDA O'YIN METODI ORQALI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Maxmudova Maxarram Sharof qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Fizika va texnologik ta'lif fakulteti

Texnologik ta'lif yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni bolalarda o'yin metodi orqali rivojlanirish usullari va samarali metodlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lif turlari, ingliz tilda blok o'ynash, rol o'yinlar, qo'l mehnati.

Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samarliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktabgacha ta'linda ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lif muassasalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihamalarni amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi, va u atrof olamni o'rganish uchun barcha ish tuyg'ularni ishga solidi.O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'ulotda bo'lganligi bois,bolaga atrof olam va undagi barcha zaruriy bilim ko'nikmalar o'yin vositasida tusghuntirilib borilsa, ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi.O'yin bolaning nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikning ham shakllanishida yordam beradi.O'yin bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga atrofdagilar bilan ijobjiy munosabatni shakllantirishda ham katta ko'mak beradi.

Yosh bolalar o'zlarining his-tuyg'ulari va harakatlari orqali o'rganishadi, shuning uchun ingliz tilini o'rganish ham ana shu xis tuyg'ular va xatti harakatlar orqali amalga oshirilishi kerak. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganishida qiziqarli va muloqot qilishga rag'batlantiruvchi vaziyatlar va faoliyatlarga jalb qilish til ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun juda muhim omil hisoblanadi.Faoliyat maqsadi ingliz tilini o'rgatish bo'lsa-da, u o'yin kabi bolalarni o'ziga jalb qila olishi hamda ushbu mashg'ulotlarga bolalar beixtiyor kirishib ketishi va

bolalar xorijiy tilni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda o'zlashtirib borishligini ta'minlash ham alohida e'tiborga molik. Yosh bolalarni ingliz tilini o'rganish uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi turli vaziyatlar xosil qilish va bolalarni unda faol ishtrok etishlarini ta'minlash barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Har qanday vaziyat va faoliyatlar zamirida ingliz tilini o'rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda inlgiz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ona tilidagi muloqotni qisqartirish va asosiy urg'uni ingliz tiliga berish kerak. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gaprish ohangi bilan bolani o'ziga jalg qila olishi til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan , til o'rgatuvchi murabbiylarning "Playing with blocks or legos" (bloklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), "Dressing" (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), "Animals and their sounds" (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), "Crafts" (qo'l mehnati yordamida turli narsalar yasash), Sing a song (qo'shiq kuylash) [8.1] kabi ta'limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o'rganish ko'nikmalarini shaklantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo'lamiz.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zları so'z o'yayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food , profession va hokazo.Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytildan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi. Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsangiz ham bo'ladi. Biror mavzuga so'z aytish o'rnila, har bir o'quvchi keying o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz "say something red" (biror qizil narsani aytin) deb o'yini boshlashingiz mumkin. Kopto'kni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry " deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'yashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'yashi kerakligini ham bilishi lozim.

20 Objects (20 Buyumlar)

Bir vaqtning o'zida ushbu o'yin orqali o'quvchilaringizni xotirasini va so'z boyligini tekshiring. Sizga faqatgina doska va 20ta sinf xonada joylashgan buyumlar kerak bo'ladi. Siz hattoki o'zingizning sumkangiz yoki yoningizdagi buyumlariningizdan foydalanishingiz mumkin.

Buyumlarni hammasini stol ustiga qo'yib chiqing va o'quvchilaringizni hammasini chaqirib ularga qarashlarini ayting. Keyin hamma buyumlarni bir daqiqadan keyin qog'oz (yoki shunga o'xshash biror narsa) bilan yoping. Hamma o'quvchilaringizdan joylariga qaytib bir varoq qog'ozga eslab qolgan buyumlarini ingliz tilida yozishlarini so'rang. Hamma tugatganidan so'ng esa buyumlar ro'yxatini doskaga yozing va o'quvchilardan o'zlarini tekshirishlarini so'rang. Muqobil variant sifatida so'zlarni birma -bir o'qib berib tog'ri topganlarini belgilab borishlarini so'rashingiz mumkin.

What Am I Thinking Of? (Men nima haqida o'ylayapman?)

O'quvchilarni juftliklarga ajratib chiqing. Har bir o'quvchi bir varoq qog'ozga biror buyumni tasvirlab 5-10ta so'z yozishi kerak bo'ladi. Qachonki vaqt tugaganida, o'quvchilar varoqlarini almashtirishadi va sherigi nimani tasvirlaganini topishga harakat qiladi. So'zlarni to'g'ri topgan birinchi jamoa go'lib bo'ladi.

Bingo o'yin turi.

Bu o'yinni o'ynatish uchun biroz tayyorgarlik ko'rishingizga tog'ri keladi, lekin bu shunga arziydi. 4×4 shaklda bingo qog'ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so'zlar yozing. Bularni o'quvchilarga tarqating (har biri takrorlanmas bo'lishi kerak) va siz so'zlarni o'qib berganizda o'quvchilar bor so'zlarni belgilashlari kerak. Butun sahifadagi so'zlarni birinchi belgilagan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Bingo o'yinining ba'zi turlari bor.

Rasmlı Bingo: Bingo kartasida rasmlardan foydalaning va o'sha rasmlarga oid bo'lgan so'zlarni o'qing.

Sinonim Bingo: Bingo kartasidagi ma'nodosh so'zlarni aytish orqali o'quvchilaringizni o'ylashga majbur qiling.

Antonim Bingo: Bu ham sinonim kabi faqat o'quvchilar ma'nodosh emas, teskari ma'noli so'zlarni qidirishi kerak bo'ladi. "Playing with blocks or legos" Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berilsa qilinganda aynan bloklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyatda o'z isbotini topgan. Bloklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'yinlarda so'z boyligini ingliz tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi. Bola bu o'yin orqali sanashni va tartiblashni o'rganadi: How many blocks are there? (u yerda

nechta kubik bor?) Shall we put the blue ones here? (bu yerga ko'k kubikni qo'yamizmi?) Narsalar joylashuvini predloglar orqali o'rGANADILAR: in (ichida), on(ustida), under(ostida), below(pastda), behind(orqasida), next to(yonida). O'lchov birliklari haqida tushuncha ega bo'ladilar: big(katta), small(kichik), long(uzun), short(qisqa). Quyidagi so'zlar yordamida bola yasayotgan narsalarga ko'rsatma beriladi: Find the red block, please!(qizil kubikni toping!), Pull the blue one, please!(ko'k kubikni torting!), push them!(ularni suring!), Build the house, please!(uy quring!) make the car, pleaser! (mashina yasang!). "Dressing" ta'limiy faoliyat turi orqali bolalarga dunyo xalqlarning ertak qahramonlarini tanishtirish mumkin. Ertak qahramonlarining obrazlarini bolalarga tanishtirilayotganda ularning kiyimlarini kiydirish va rol ijro etish ingliz tilida olib boriladi va bu faoliyat yordamida bolaning ingliz tili so'z boyligi ortadi va bola tasavvuri, dunyoqarashi kengayadi. Ushbu ta'limiy faoliyat orqali bolalar, inson tana a'zolariga hamda kiyim kechakka oid bo'lgan so'zlarni o'rGANADILAR va amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Inson tana a'zolari: head(bosh), arms(qo'llar), hands(qo'llar), foot (feet)(oyoqlar), legs(oyoqlar), eyes(ko'zlar)... Kiyimlar: dress(qizlar ko'ylagi), shirt(og'il bolalar ko'ylagi), t-shirt(futbolka), shoes(poyafzal), slippers(shippaklar), cap(kepka), belt(kamar), gloves(qo'lqoplar) ...

Xulosa. Bolalarning mакtabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muxuti, mahalla e'tibori hamda maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaga bog'liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy information kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida o'rgangan bilimi ajdodlarimiz aytganidek "toshga bititishi" bejis emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarori;

2. O'z DSt 17368-2020 "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida "
3. <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopment.asp>. Ages and Stages of Development
4. Care About Quality was published by the California Department of Education in 2000.
5. https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en. internet resurs.